

KIRISH SO‘ZI

So‘ngi yillarda Respublikamizning barcha jabhalarida keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida ta‘lim tizimida ham keskin burilish ro‘y berdiki, uning asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini aytishimiz mumkin. Unda oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta‘minlash maqsadida qator vazifalar belgilangan.

Jumladan, yangi avlod o‘quv adabiyotlar resurlarini yaratish va ularni oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim jarayoniga keng tatbiq etish, axborot-resurs markazlari fondlarini mustahkam yangilab borish, oliy ta‘lim muassasalarini zamonaviy raqamli vositalari bilan jihozlash, oliy ta‘lim muassasalari talabalari, o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarini jahon ta‘lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma‘lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta‘lim jarayonini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish va boshqa ko‘p sonli vazifalar ana shular qatoriga kiradi.

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Bizning dunyomizmi o‘zgartirish: 2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi”ga muvofiq bergan tavsiyalariga ko‘ra, raqamli savodxonlik pedagogik ta‘limning barcha shakllarini hamda butun hayoti davomida pedagogik faoliyatining elementi bo‘lishi kerak deb ta‘kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq universitetimizda ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

CPM tizimining universitet faoliyatining barcha yo‘nalishlariga интеграция қилиниши, электрон kutubxonalar va ma’lumotlar bazalari orqali universitet talabalarimizga ilmiy maqolalar, kitoblar, jurnallar va boshqa manbalardan foydalanish imkonini beradi, bu esa zamonaviy bilim va ilmiy materiallardan foydalanishni osonlashtiradi. Ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish hujjatlarni qayta ishlash, dars jadvallarini boshqarish, baholash va boshqa ma'muriy vazifalarni bajarish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar va ma'lumotlarni saqlash universitet resurslariga istalgan joyda va istalgan vaqtda kirish imkonini beradi. Deyarli barcha o‘quv xonalarida interfaol doska va multimediali o‘quv qurollari mavjud.

Ta’lim tizimida ro‘y berayotgan muammolarni o‘rganish, muhokama qilish, yechimlarni topish va istiqbollarini belgilash, shuningdek ta’lim tizimi rivojiga qaratilayotgan masalalar va ularni yechimlari “Ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjumanida muhokama etilishi ko‘zda tutilgan.

Anjumanda ko‘tarilayotgan uzluksiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta’lim resurslarini yaratish va amalda qo‘llash, pedagogik tadqiqotlarda raqamli va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, raqamli jamiyatda mutaxassislik fanlarni o‘qitish hamda ta’lim tizimida sun’iy intellekt muammolari hozirgi kunning dolzard mavzulari hisoblanadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, o‘quv jarayoniga raqamli ta’lim resurslarin joriy etish, ular asosida talabalarning yangi bilimlarni idrok etishini ta’minlash orqali yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sohasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish” ustivor vazifa etib belgilangan. Bunda oliy ta’lim tizimida virtual va to‘ldirilgan reallik, sun’iy intellekt, “bulutli” hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish nazarda tutilgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ta’lim tizimida fan va texnikada erishilgan zamonaviy yutuqlaridan keng foydalanish, innovatsion ta’lim texnologiyalari va

raqamli texnologiyalarga asoslangan didaktik modellardan, zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim oluvchilarga bugungi kunda zarur bo'lgan zamonaviy bilimlarni olishlarini ta'minlaymiz.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda ushbu xalqaro ilmiy - amaliy anjuman oflayn va onlayn tartibda o'tkazilishi rejalashtirildi va o'z ichiga quyidagi 5 ta sho'bani qamrab oldi:

- | | |
|----------|---|
| 1-sho'ba | Uzluksiz ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning mavjud holati va istiqbollari |
| 2-sho'ba | Raqamlashtirish sharoitida ta'limda pedagogik va innovatsion yondashuvlar |
| 3-sho'ba | Raqamli jamiyatda mutaxassislik fanlarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari |
| 4-sho'ba | Pedagogik tadqiqotlarda raqamli va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish jarayoni |
| 5-sho'ba | Ta'limda ergonomika va sun'iy intellekt: ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasi |

Ushbu anjumanga 100 dan ortiq maqola va tezislar kelib tushgan. Kelib tushgan maqolalarning deyarli barchasi bugungi kunning dolzarb muammosini yechimiga qaratilgan.

O'ylaymanki ushbu o'tkazilayotgan xalqaro ilmiy - amaliy konferensiyada aynan bugungi kunning dolzarb masalalarini qamrab olgan bo'lib, oldimizga qo'ygan vazifalarni amalga oshirilishida, erishilayotgan natijalar Davlatimiz Rahbarining doim diqqat markazida ekanligini unutmasligimiz lozim.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka, ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.K.Kirg'izbayev